Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini va uni transformatsiya qilish mexanizmlari va modellarini tadqiq etgan xorijlik olimlar qatorida T.Kun, F.List, K.Peres, M.S.Roko, V.S.Beynbridj, T.Jotsana, E.Sebastian, D.Bell, Y.Shumpeter, S.Klark, P.Arnold, G.Dosi kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan Vasilevskiy E., Inozemsev V.L., Bukreyev V. V., Krasilnikov O.Yu., Vertakova Yu. V., Plotnikov V. A. Komarova O. V. Kejun L. A., Latova Yu.V., Suxarev O.S. va boshqalar ushbu mavzuga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.Gulyamov, A.V.Vaxabov, A.V.Vahabov, A.O'lmasov, S.V.Chepel, X.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, T.T.Jo'rayev, A.A.Mamatov, D.X.Xasanova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotning institutsional asoslarini takomillashtirishning nazariy jihatlari, sanoat inqilobi natijasida shakllanayotgan yangi texnologik ukladning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini shakllantirish masalalari bo'yicha atroflicha tadqiqotlar olib borilgan.

D.Nort va L.Devislarning fikriga ko'ra, institutsional muhit – bu asosiy siyosiy, ijtimoiy va huquqiy qoidalar majmui bo'lib ular ishlab chiqarish, ayrboshlash va taqsimot uchun ba'zis yaratadi [2]. Dj.R. Kommons institutlarni tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlab unga ko'ra “evolyutsion” tushunchasi “institutsional” tushunchasi bilan mazmun va ma'nosi bir xil bo'ladi deb ta'kidlaydi [3].

Rus olimi V.V.Bukreyev, E. N. Rudikning fikriga ko'ra, “davlatlar o'zlarining resurs bazasi, iqtisodiy munosabatlar tizimi va milliy iqtisodiy manfaatlar shuningdek, institutsional tuzilmaning o'ziga xos xususiyatlari asosida milliy iqtisodiy xavfsizlikni shakllantirishning turli xil variantlarini kombinatsiyalashtiradilar [4]. Yu.V.Latov xulosasiga ko'ra milliy iqtisodiy xavfsizlikning maqsadi milliy iqtisodiyotning samarali ishlashi uchun institutsional asosni yaratishdir (mulk huquqi kafolatini ta'minlash, qonun ustuvorligi, bitimlarning shaffofligi va boshqalar) [5] deb baho beradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor X.P.Abulqosimov: “Ushbu fikrlarga asoslangan holda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi deb ta'kidlaydi [6]. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor X.P.Abulqosimov: “Ushbu fikrlarga asoslangan holda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi deb ta'kidlaydi [6]. B.Ma'murovning fikricha, “Paqamli iqtisodiyot – iqtisodiyotning tarkibiy qismlari sifatida sun'iy aql(ong)dan foydalanish, ish jarayonlarini robotlashtirish, ishlab chiqarish jarayonida turmush mehnat xarajatlarini kamaytirish, maxsus kompyuter dasturlari yordamida iqtisodiy tizimlarni modellashtirish va dasturiy qobiliyatini oshirishdir” [7] deb xulosa qiladilar.

Biroq yangi sanoat inqilobini shakllanishi sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlik munosabatlarining institutsional asoslari, uning xalqaro nazariya va amaliyotni tahlil qilish, ma'lum yondashuvlarni tizimlashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etilmoqda. Ushbu jihatlar ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi va muhimligini belgilab beradi hamda tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi.

## ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida hamda jahonning boshqa davlatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammosiga katta qiziqish ko'p jihatdan global iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Rivojlanishning hozirgi bosqichida davlatlararo munosabatlarning murakkablashishi, nafaqat milliy iqtisodiy xavfsizlikni, balki uning subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosi ham har bir davlat uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Davlat manfaatlari bu konstitutsion tizimning mustahkamligi, suverinitetligi va hududiy yaxlitligida, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi, qonuniy tartib-qoidalarni ta'minlanganligida va o'zaro tenglik hamda manfaat asosida xalqaro hamkorlikni rivojlanishidan tarkib topadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida yuqorida ta’kidlab o‘tilgan va sodir bo‘layotgan barcha jarayonlar milliy iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirishda qo‘shimcha muammo va to‘siqlarni vujudga keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiy xavfsizlik tizimini tahlil qilishning an’anaviy yondashuvi turli darajadagi ehtimolliklar bilan ma’lum darajadagi iqtisodiy tizimning holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan har xil turdagi ta’sirlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy xavfsizlik barcha darajadagi iqtisodiy tizimning atributiy xususiyatini o‘zida mujassamlab, uning tashqi muhit omillari sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi hamda aniq munosabatlarning obyektlari va subyektlari bo‘lgan ichki muhit omillarini, shuningdek, tahdidlar manbalarini bartaraf etish va internallashtirish maqsadida yaratilgan va ularni reglamentlovchi institutlar sifatida nomoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va uning moddiy asosi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat milliy xavfsizlik genezisi va shakllanishiga doir masalalar qatorida o‘rganilib chiqilishi darkor. Milliy xavfsizlik bu O‘zbekiston Resrublikasi suverenitetini ta’minlovchi xokimiyatning yagona manbai sifatida ko‘pmillatli xalqning xavfsizligi tushuniladi. Iqtisodiyot sohasida milliy xavfsizlikni ta’minlash bu jamiyatning asosiy aholi qatlamlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta’minlash tushiniladi[8].

Iqtisodiyot eng murakkab dinamik tizim sifatida uning holati va takror ishlab chiqarish va rivojlanish qobiliyatini aks ettiruvchi yuzlab ko‘rsatkichlardan foydalanish bilan tavsiflanadi, ularni qo‘llash sohasida O‘zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi holatini baholashda ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan va nashr etilgan[9]. Davlat siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyotni nafaqat sifat, balki xavflardan xoli bo‘lgan tarzda rivojlanish chegaralarini miqdor jihatdan ham belgilashi talab etiladi. Demak, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik holatining sustlashishiga ma’lum bir chegara doirasida yo‘l qo‘yilishi mumkin. Iqtisodiy xavfsizlik uchun ko‘rsatkichlarning o‘zi emas, ularning chegaraviy miqdori muhim ahamiyatga ega. Shu chegaralarga rioya qilmaslik takror ishlab chiqarishning turli elementlarini normal taraqqiy etishiga to‘sqinlik qiladi. Iqtisodiy xavfsizlikda negativ, buzuvchi jarayonlarning shakllanishiga olib keladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishini belgilovchi asosiy va eng muhim bo‘lgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1) mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari: yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy mahsulot dinamikasi va uning tarkibiy tuzilmasi; sanoat ishlab chiqarish hajmi, sur’ati va tarkibiy ko‘rsatkichlari; investitsiyalar va innovatsiyalar hajmi; iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi va alohida tarmoqlar dinamikasi; zarar bilan ishlaydigan korxonalarning ulushi va hokazo.;
2) ijtimoiy sohaning umumiy holatini tavsiflovchi aholining turmush darajasi va sifati ko‘rsatkichlari: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot yoki yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish; shaxsiy daromadlar, iste’mol xarajatlari, ularning o‘sish sur’atlari; turmush darajasi va iste’mol narxlari; ish haqi va minimal yashashning nisbati(tannarxi); daromadlarni tabaqalashtirish; ishsizlik darajasi, bandlik darajasi; ijtimoiy dasturlar bo‘yicha xarajatlar; uy-joyning arzonligi; umr ko‘rish davomiyligi, unumdorlik, o‘lim va boshqa demografik xususiyatlar; “yalpi inson taraqqiyoti indeksi” va boshqalar.;
3) ishlab chiqarish, tabiiy resurslar, ilmiy-texnik, inson va intellektual salohiyatni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar: resurslarni tejash ko‘rsatkichlari; ishlab chiqarish omillarini takror ishlab chiqarish holati; ilmiy texnologiyalardan foydalanish samaradorligi va boshqalar.;
4) tashqi omillarga bog‘liqlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar: inflyatsiya darajasi; milliy valyutaning barqarorligi; ichki va tashqi qarzdorlik, investitsion jozibadorlik, ishbilarmonlik faolligi darajasi;
5) iqtisodiyot darajalarining o‘zaro bog‘liqligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar: makro daraja uchun bu mamlakatning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi ko‘rsatkichlari: eksport, import, saldosi; importga bog‘liqlik; ichki iste’moldagi import ulushi; moddiy ishlab chiqarishda eksport ulushi va boshqalar;
6) xufyona iqtisodiyot faoliyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar: ro‘yxatdan o‘tmagan va taqiqlangan faoliyatdan olingan daromadlarning YAIM va YAMMdagi ulushi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlari tizimida (mezo-daraja) quyidagilar mavjud:

1) mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar: aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi; asosiy vositalarning amortizatsiya darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkich; mintaqa iqtisodiyotiga kiradigan investitsiyalarning YAHMga nisbati;
2) ijtimoiy sohaning umumiy holati ko‘rsatkichlari: ijtimoiy dasturlar bo‘yicha xarajatlarning YAHMga nisbati; mehnatga layoqatli aholining umumiy sonidagi ishsizlarning ulushi; o‘rtacha ish haqi va yashash minimumining nisbati;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3) davlat budjeti bilan mintaqaning mahalliy budjetini moliyaviy munosabatlarini holatini tavsiflovchi ko'rsatkich: respublika budjetdan mintaqaga transfer yordam miqdorining, mintaqadan respublika budjetiga keladigan daromad miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy subyektning iqtisodiy xavfsizligini tavsiflovchi mikro darajadagi iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1) iqtisodiy ko'rsatkichlar: ishlab chiqarish hajmi va darajasi ko'rsatkichlari; ishlab chiqarish va daromad dinamikasi va tuzilishi; faoliyatni diversifikatsiya qilish va alohida sohalar dinamikasi; investitsiyalar;
2) ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, kadrlar, intellektual, tabiiy resurs salohiyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
3) boshqaruv mexanizmining dinamikasi va moslashuvchanligi ko'rsatkichlari;
4) korxonaning (firmaning) tashqi omillardan bog'liqligi ko'rsatkichlari: makroiqtisodiy omillarning ta'siri; investitsion jozibadorlik; inflyatsiya darajasi; milliy valyutaning barqarorligi; budjet taqchilligi.

Biroq iqtisodiy xavfsizlikni har tomonlama baholash uchun obyekt miqyosiga muvofiq darajalarga ajratish yetarli emas, chunki iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy, oziq-ovqat va ekologik omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ko'rsatkichlarning uchta umumlashtirilgan guruhini ajratib ko'rsatish kerak: ishlab chiqarish, ijtimoiy va moliyaviy. Shu bilan birga, ijtimoiy ko'rsatkichlar demografik, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar tarkibiy qismlarning birligida, ishlab chiqarish esa ishlab chiqarish-texnologik, mehnat, tabiiy-resurs tizimlarining birligida ko'rib chiqilishi kerak.

Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash uchun ko'rsatkichlar matritsasini tuzamiz, ko'rsatkichlarni ikkita mezon bo'yicha taqsimlaymiz: iqtisodiy xavfsizlik darajasi (ustunlar) va indikator turi (satrlari), shunda qatorlardagi ko'rsatkichlar taqqoslanadigan va mos keladigan daraja uchun teng og'irlik qiymatiga ega bo'lishi kerak. Guruhlar ichida biz barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga umumiy ta'sir ko'rsatadigan umumiy ko'rsatkichlarni va faqat ko'rib chiqilayotgan darajadagi subyektlarni tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlarni ajratamiz. Shunday qilib, umumiy ko'rsatkichlarni baholash global qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish uchun asos bo'ladi va alohida xususiy ko'rsatkichlarning qiymatlari tegishli darajadagi muayyan tahdidlarga qarshi kurashish yo'nalishlarini aniqlash uchun asos bo'ladi, ya'ni. xususiy ko'rsatkichlar nafaqat xavfsizlikning hozirgi darajasini ko'rsatish, balki tahdidlarga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlarini tanlash imkonini berishi kerak. Shu bilan birga, ko'rsatkichlar sifatida nafaqat iqtisodiy xavfsizlikka mavjud tahdidlarni aks ettiruvchi, balki zarur sezgirlik va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflardan ogohlantirish qobiliyatiga ega bo'lgan ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish muhimdir [11].

Milliy iqtisodiyotning faoliyat bilan bog'liq xavf va taxditlar tarkibida institutsional xavf va taxditlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Ularning paydo bo'lishining zaruriy sharti noaniqliklardir, unga institutlarning samarasizligi yetarli shart-sharoitlar yaratadi. Agar institutlarning samarasizligi barqaror va o'zini o'zi qo'llab-quvvatlasa, unda institutsional tuzoq paydo bo'ladi. Samarasiz institutlarni institutsional tuzoqqa aylanish sabablari:

- birinchidan, norasmiy institutlarning transformatsiyasi, bu institutsional o'zgarishlarning tranzaksion xarajatlarining pasayishiga olib keladi (masalan, soliq madaniyatining pasayishi soliq huquqbuzarliklari va soliq jinoyatlari sonining ko'payishiga olib keladi, bu taqiqlovchi institutlarning konservatsiyasiga va nazorat xarajatlarining o'sishiga olib keladi);
- ikkinchidan, ta'limning samarasi (masalan, ta'lim tizimi umumiy madaniy va kasbiy vakolatlarning retranslyatori sifatida ishlaydi, uning tashuvchilariga bo'lgan talab muhim vaqt oralig'idan keyin qondiriladi, bu esa inson kapitali institutlarini konservatsiyasiga olib keladi);
- uchinchidan, muvofiqlashtirish samarasi (masalan, quyi innovatsion madaniyat innovatorlar – innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar sonini cheklaydi, bu esa innovatsiyalarning tranzaksiya xarajatlarining oshishiga olib keladi va asosiy innovatsiyalarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.); o'zaro bog'liqlik samarasi (masalan, xavfga yo'naltirilgan moliyaviy nazorat institutlarini loyihalash yangidan tashkil qilinayotgan va avvaldan mavjud institutlar o'zaro aloqasining past darajasi bilan cheklanadi); evolyutsion institutsional o'zgarishlar uchun cheklangan imkoniyatlar (masalan, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan institutning evolyutsiyasi institutsional muhitda tub o'zgarishlarga yo'l qo'ymaydi).

Institutsional tuzoqlar (milliy iqtisodiyot taxditlarining namoyon bo'lish shakllari) sifatida: korrupsiya tuzog'i, soliqlardan bo'yin tovlash tuzog'i, o'z-o'zini oqlaydigan pessimistik umidlar tuzog'i, qashshoqlik tuzog'i, oldingi rivojlanish trayektoriyasiga nisbatan qaramlik tuzog'i, yashirin iqtisodiyot tuzog'i va boshqalar.

Bunday samarasiz institutlarning barqarorligi ularni transformatsiyalash xarajatlarining mavjudlari faoliyatining tranzaksiya xarajatlaridan oshib ketishi bilan bog'liqdir. Institutsional tuzoqlar xavflar sifatida tasniflanadi, chunki ular institutsional muhitda evolyutsion yoki inqilobiy o'zgarishlarni boshlashi mumkin, bu esa tranzaksiya xarajatlarining o'zgarishiga olib keladi, agar ular kamaytirilsa, tashkilot faoliyatining asosiy iqtisodiy tizim ko'rsatkichlari dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [12].

Iqtisodiy xavfsizlikni institutsional ta'minlashga yo'naltirilgan subyektlar faoliyati bu ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siridan kelib chiqadi, doimo hamkorlikda harakat qilishlari va iqtisodiy xavfsizlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirish teskari aloqaga asoslanishi kerak [13].

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi siyosat mamlakatning yaxlit iqtisodiy tuzilmasi sifatida barqaror, mustaqil rivojlanishi, samarali va oqilona tashqi iqtisodiy aloqalarga asoslangan tabiiy iqtisodiy o'sishi, inson faoliyatining aksariyat sohalarida innovatsion inqilobni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak [14]. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatidagi xavfsizligini ta'minlashga doir quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- import tovarlariga bo'lgan qaramlikni kamaytirib borish maqsadga muvofiq. Jumladan, import qilinayotgan tovarlarning mintaqada ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish. Masalan, mashina va asbob-uskunalarning importini qisqartirish, milliy iqtisodiyot ehtiyojidagi mashina va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga imtiyozlar berish, ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom-ashyoning import bojlari va yig'imlari, qo'shimcha qiymat solig'isiz olib kirilishiga imkoniyat taqdim etish;
- O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganidan so'ng, raqobatbardosh bo'lmagan, ammo mamlakat iqtisodiyotida ahamiyatli bo'lgan korxonalarning faoliyati to'xtatilishi mumkin. Shu sababli tashkilot bilan muzokaralar jarayonida milliy iqtisodiyot uchun ahamiyatli bo'lgan korxonalarga imtiyozlarni saqlab qolish lozim. Bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xavflarni kamaytiradi;
- xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lishi hamda boshqa xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqda iqtisodiy aloqalarni olib borish, mamlakatga katta imkoniyatlar hamda taxditlarni vujudga keltiradi.

"Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy salohiyati, dunyo iqtisodiyotida tutgan o'rni, tabiiy, moddiy va insoniy resurslar bilan ta'minlanishi, ilmiy texnologik salohiyati, iqtisodiyotni tartiblab turuvchi mexanizmlarni naqadar yaxshi ishlashiga qarab turli darajada ta'minlanadi" [15].

Eng umumiy ma'noda, mexanizm insonlarning maqsadli faoliyati natijasidir va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan ma'lum dastaklar, shart-shartlar, me'yorlar, qoidalarni anglatadi. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ko'lami va darajasi uning imkoniyatlariga mos ravishda bo'lib, bozor mexanizmlari, xo'jalik subyektlarining erkin faoliyat yuritishi uchun qulay iqtisodiy muhit yaratilishiga imkon berilishi lozim bo'ladi. Demak, tizimning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi yangi paydo bo'lishi mumkin bo'lgan taxditlarni oldini olish, mavjud xavf va tahdidlarning darajasini pasaytirish, shuningdek, iqtisodiy tizimini strategik rivojlanish maqsadlarga erishishni ta'minlashga qaratilgan tizimlashtirilgan yalpi instrumentlar, institutsional tartiblar va shart-sharoitlar to'plami sifatida tushunilishi kerak. "Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ichki mexanizmiga, mamlakatda bozor o'zgarishlari, islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni boshqarishning bozor va davlat dastaklari usullaridan foydalanishni uyg'unlashtirish, strategik zahirani jamg'arishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni ko'zlaydi" [16].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy xavfsizlik bu – mamlakatni xavf va tahdidlardan himoyalanganlik bilan bog'liq uning iqtisodiy salohiyatining izchil rivojlanishini belgilaydigan va jamiyatning barcha a'zolarining turmush farovonligini barqaror o'sishini ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlardir.

Iqtisodiy xavfsizlikni har tomonlama baholash uchun obyekt miqyosiga muvofiq xavfsizlikning makroiqtisodiy, mezodarajadagi va mikrodarajadagi ko'rsatkichlar tizimiga muvofiq darajalarga ajratish yetarli emas, chunki iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy, ijtimoiy-demografik, ijtimoiy, oziq-ovqat va ekologik omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ko'rsatkichlarning uchta umumlashtirilgan guruhini ajratib ko'rsatish kerak: ishlab chiqarish, ijtimoiy va moliyaviy.

Institutsional tuzilmani transformatsiyasi ekzogen, endogen va kombinatsion sinergetik ta'sir orqali institutsional tuzilmalarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar ta'sirida sodir bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar-bu iqtisodiy tizim va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazadigan hodisa va jarayonlardir.

Milliy iqtisodiy xavfsizlikka tahdid bu- konstitutsiyaviy huquqlar, erkinliklar, fuqarolarning munosib turmush darajasi va sifati, suverenitet va hududiy yaxlitligi, barqaror rivojlanish, davlat mudofaasi va xavfsizligiga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazish ehtimolidir.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 21.12. 2022-yil.
2. Davis L., North D. Institutional Change and American Economic Growth. –Cambridge, 1971. –pp. 5-6.
3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. – 2-е изд. – Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.
4. Букреев В. В., Рудык Э. Н. Противодействие внешнему управлению стратегическими промышленными предприятиями России // Альтернативы. – 2019. – № 2. – С. 92-101;
5. Латов Ю. В. Российская теневая экономика в контексте национальной экономической безопасности // Экономический вестник Ростовского государственного университета. – 2007. – Т. 5. – № 1. – С. 16-27.
6. Abulqosimov H.P. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2018-yil.
7. Ma'murov B.X. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning konseptual asoslari va xorij tajribasi. Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2020-yil № 4. –B.44.
8. Asatullayev X.S., Mamatov A.A., Jo'rayev T.T.. Iqtisodiy xavfsizlik (Darslik ). –T.: "TMI nashriyoti", 2023. B.26.
9. Karimov N., Isroilov B., Xotamov I., Xamidova F., Saydullayev Sh., Jabborov J. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. Monografiya – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T: "Ilm-fan va innovatsiya" nashriyoti. 2021 y.-152 b.
10. Mualliflar tadqiqotlari asosida tuzilgan.
11. Ханипова Е. Х. Матрица показателей экономической безопасности / Е. Х. Ханипова // Вестник экономики, права и социологии. – 2014. – №4. – С. 97-100.
12. Герасимова В. В. Институциональные ловушки современного общественного развития, обусловленные коррупционными взаимосвязями / В. В. Герасимова, Н. В. Манохина // Вестник Поволжского института управления. – 2015. – № 3 (48). – С. 4-11.
13. Буркальцева Д. Д. Модель институционализации системы обеспечения экономической безопасности (на примере Украины) / Д. Д. Буркальцева // Вестник Екатерининского института. – 2014. – № 4(28). – С. 24-30.
14. Asabayev A.S. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi xavfsizligi: integratsiyalashuv va taxditlar. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali 2022-yil №3. –B.143.
15. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU.–T.: "Iqtisodiyot-moliya" nashriyoti", 2014-yil –B.312.
16. Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. T.:"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi" 2021-yil. – B.41.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.